

**“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:  
29-mavzu: “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi”**

**ASOSIY DARS MASHG‘ULOTI**

**Umumiy maqsad:** O‘quvchilarga Amir Temurning shaxsiy fazilatlari – adolat, jasorat, vatanparvarlik, halollik, tartib-intizom va mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni anglatish; uning jasorati, davlat boshqaruvi, adolatga asoslangan siyosati, bunyodkorlik ishlari haqida boshlang‘ich tushunchalarni berish, ajdodlar merosini asrash, tarixni hurmat qilish, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish.

O‘quvchilarda Amir Temur siymosi orqali tartib, intizom, yaxshilik, mardlik va insonparvarlik kabi ijobiy xislatlar haqida tushuncha hosil qilish, ularni kundalik hayotda yaxshi ishlarga rag‘batlantirish va boshqalar bilan mehrlilik bo‘lishga o‘rgatish.

**Aniq maqsadlar:**

Dars yakunida o‘quvchilar:

Amir Temurning buyuk tariximizdagi o‘rnini, uning davlat arbobi sifatidagi buyukligini sodda so‘zlar bilan izohlashni o‘rganadilar.

Temur bobomiz amalda namoyon qilgan adolat, tartib, halollik kabi xatti-harakatlarni kundalik hayotdagi fazilatlar bilan bog‘lay oladilar.

Amir Temurning bunyodkorlik ishlari haqida umumiy ma‘lumotga ega bo‘ladilar.

***“Kuch – adolatda” shiorining mazmunini tushuntira oladilar.***

Tarixiy voqealarga sodda baho berish va ulardan ibrat olish ko‘nikmasi shakllanadi.

O‘z hayotlarida kichik bo‘lsa-da, yaxshi ishlar qilish, odobli bo‘lishga intilish hosil qiladilar.

**Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

**Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. <https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

**Materiallar to‘plami:**

- ✓ ssenariy;
- ✓ uslubiy tavsiyalar;
- ✓ videomateriallar;
- ✓ interaktiv topshiriqlar;
- ✓ taqdimot.

## ASOSIY MASHG‘ULOT SSENARIYSI

### KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

**O‘qituvchi:** Bolajonlar, biz “Kelajak soati” darslarida ko‘pincha yurtimiz tarixida muhim iz qoldirgan voqealar va shaxslar haqida gaplashamiz. O‘tgan darslardan shuni angladikki, har bir yutuq ortida fidoyi insonlar, katta orzular va kuchli iroda turadi.

Har bir davrda shunday insonlar bo‘ladiki, ular shunchaki oddiy insonlardek yashab o‘tmaydi. Ular butun bir xalq taqdirini o‘zgartiradi, tarixni o‘zgartiradi, o‘zidan kelajak avlodlarga buyuk davlat qoldiradi. Ularni butun dunyo taniydi, nomi asrlar o‘tsa ham unutilmaydi, aksincha, yanada ulug‘lanadi.

Xo‘sh, qanday insonning nomi yuzlab yillar o‘tsa ham unutilmaydi?

*O‘quvchilar javob beradi:*

- Yaxshi inson.
- Qahramon.
- Kuchli inson.

**O‘qituvchi:** To‘g‘ri. Yana bir savol. Qanday inson haqida butun dunyo gapiradi?

*O‘quvchilar javob beradi:*

- Buyuk inson haqida.
- Hammaga foydasi tegadigan inson haqida.

**O‘qituvchi:** Juda yaxshi. Bolajonlar, bugun biz ana shunday buyuk inson haqida gaplashamiz. Uning nomini sizlar ham yaxshi bilasiz.

*Doskaga Amir Temur surati chiqariladi.*



**O‘qituvchi:** Bu kim?

**O‘quvchilar:** Amir Temur bobo!

**O‘qituvchi:** Ha, Amir Temur. U bizning ajdodimiz. U bizning yurtimizda, bundan 690 yil avval hozirgi Qashqadaryoning Qarshi shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. Keyinchalik esa poytaxti Samarqand bo‘lgan ulkan davlat qurgan.

*O‘qituvchi doskaga kalit so‘zlarni yozadi:*

**690 yil**

**Qashqadaryo**

**Xo‘ja Ilg‘or**

**Samarqand**

**O‘qituvchi:** Endi tasavvur qiling: juda qadim zamon. Yurtimiz mo‘g‘ul bosqinchilari zulmi ostida. Urushlar ko‘p, qabilalar va urug‘lar o‘zaro yovlashgan. Odamlar qiyinchilikda yashagan. Ana shunday paytda dunyoga kelgan bir bola hech nimadan qo‘rqmas bo‘lib ulg‘aya boshladi. U yurtini ozod ko‘rishni istar edi.

Amir Temur qiyinchilikdan qo‘rqmagan. Katta bo‘lgach, yurtini ozod qilgan, katta davlat qurgan, hamma ishni adolat bilan boshqargan.

Bugungi kunda buyuk bobomiz hayoti va faoliyatiga ko‘p murojaat qilinadi. Bu bejiz emas. Davlatimiz tomonidan buyuk ajdodimizning merosiga katta hurmat ko‘rsatiladi. Hozir shu haqida video tomosha qilamiz.

**Vizual kontent**

**Amir Temur siymosi milliy o‘zlik, g‘urur timsoli!**

[https://t.me/kelajaksoati\\_rasmiy/498](https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/498)

*Video muhokama qilinadi (1-2 daqiqa).*

**O‘qituvchi:** Bugungi mashg‘ulot davomida biz Amir Temur bobomizning qanday fazilatlari borligini o‘rganamiz va o‘zimizda ham shu fazilatlarni shakllantirishga harakat qilamiz.

**ASOSIY QISM (30 daqiqa)**

**O‘qituvchi:** Har bir buyuk insonning hayoti xuddi oddiy insonlarniki kabi bolalikdan boshlanadi. Amir Temur ham bir paytlar sizlar kabi yosh bola bo‘lgan. U ham do‘stlari bilan o‘ynagan, maktabga borgan, yiqilgan, turgan... Lekin uning yuragida katta orzular yashagan. Keling, hozir birgalikda uning bolaligiga nazar tashlaymiz – buyuk Sohibqironning bolaligi haqida video tomosha qilamiz.

**Vizual kontent**

**Temurning bolaligi**

[https://youtu.be/tWM0OxRvs\\_k](https://youtu.be/tWM0OxRvs_k)

**O‘qituvchi:** Videoni tomosha qildingiz va Temur bobomizning bolaligi, orzulari, maqsadlari haqida bilib oldingiz. Endi o‘ylab ko‘ring: SIZ qanday bolasiz? Nimalarni orzu qilyapsiz? Orzularingiz buyukmi? Ularga erishish uchun nima qilmoqchisiz?

*Bolalarning javoblari tinglanadi va muhokama qilinadi.*

**O‘qituvchi:** Bolajonlar, bilasizlarmi, Amir Temur bobomizni “Sohibqiron” deb atashadi. Sohibqiron so‘zi nimani anglatishini bilasizlarmi?

Bu so‘z qadimda “ikkita katta yulduz uchrashgan, uyg‘un kelgan, taqdirida buyuk ishlar bitilgan inson” degan ma‘noni anglatadi. Ya‘ni Amir Temur bobomiz tug‘ilgan kunda osmonda yulduzlar alohida bir tartib bilan joylashgan bo‘lgan. Bunday kunda tug‘ilgan bola kelajakda katta ishlarni qiladi deb ishonishgan. Amir Temur ana shunday insonlardan biri sifatida tan olingan.

Lekin bolajonlar, bu yerda eng muhim narsa yulduz emas, insonning o‘zi. Agar inson mehnat qilsa, to‘g‘ri yo‘lni tanlasa, o‘z ustida ishlasa, buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Amir Temur ham o‘zini tarbiyalagan, irodasini chiniqtirgan, har kuni o‘z ustida ishlagan. Shuning uchun u jahonning yarmini egallagan buyuk hukmdor darajasiga yetgan.

Hozir tarixchi olim Sanjar G‘ulomov sizlarga Amir Temur bobomiz haqida gapirib beradilar. Monitorga qaraymiz.

### **Vizual kontent**

**“Amir Temurdan bizga nimalar qoldi?” – temurshunos olim mulohazalari**

<https://youtu.be/ePvMOCTTAnU>

**O‘qituvchi:** Videoda aytilganidek, Amir Temur asos solgan davlat va temuriylar hukmronligi davri tariximizning eng boy va maqtanishga arzigulik davrlaridan biri bo‘lgan.

Endi ayting-chi, bolajonlar, qanday insonni buyuk va tarixiy shaxs deb ataymiz?

### **O‘quvchilar:**

- Ko‘p ish qilgan insonni.
- Hammaga foydasi tegadigan insonni.
- Yurtini himoya qilgan insonni.

**O‘qituvchi:** Juda to‘g‘ri. Amir Temur ana shunday inson bo‘lgan. U faqat jangchi bo‘lmagan. U davlatni boshqargan, tartib o‘rnatgan, odamlar tinch yashashi uchun harakat qilgan. U yurtini mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod qilgan. O‘sha paytda bu juda katta ish edi. Chunki yurtimizda kichik urushlar ko‘paygan, odamlar qiynalgan davr edi.

U katta saltanat qurgan. Katta va markazlashgan saltanat degani – bu urushlar bo‘lmaydigan, boy va qudratli davlat degani. Bunday mamlakatda odamlar tinch-osuda yashaydi, iqtisod, madaniyat, ilm-fan gullab-yashnaydi.

Bu saltanat faqat kuch bilan emas, aql va adolat bilan boshqarilgan. Amir Temur bobomiz har bir ishda adolatli qaror chiqargan, shu orqali saltanatni mustahkam va barqaror qilgan. Qanday qilib deysizmi? U o‘z qo‘shiniga ham, xalqiga ham bir xil talab qo‘ygan.

*O‘qituvchi doskaga yozadi:*

**“Kuch – adolatda”**

**O‘qituvchi:** Bolajonlar, bu oddiy gap emas. Bu butun davlat boshqaruvining asosiy qoidasi. Agar kuch adolat bilan birga bo‘lsa, odamlar ishonadi, davlat mustahkam bo‘ladi. Agar adolat bo‘lmasa, eng kuchli davlat ham uzoq turmaydi. Amir Temur aynan shuni tushungan va shu tamoyil bilan davlatni boshqargan.

Endi yana bir muhim savolga e‘tibor qaratamiz. Nima uchun Amir Temur bugungi O‘zbekiston uchun ham muhim?

**O‘quvchilar:**

– Chunki u bizning bobomiz.

– Chunki u davlat qurgan.

**O‘qituvchi:** To‘g‘ri. Bugun biz tinch va rivojlanayotgan davlatda yashayapmiz. Bunday davlatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning ildizi tarixda bo‘ladi. Amir Temur yurtimizda kuchli davlat qanday bo‘lishi kerakligini amalda ko‘rsatgan. U tartib, qonun, adolat bo‘lsa, jamiyat rivojlanishini isbotlagan.

Bugun ham biz shu qadriyatlarga tayanamiz. Tinchlik, birlik, adolat – bularning barchasi biz uchun juda muhim. Shuning uchun Amir Temur siymosi bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib qoladi. U bizga yo‘l ko‘rsatadi.

Sizlar Amir Temurdan nimani o‘rganishingiz mumkin?

**O‘quvchi:** Jasurlikni.

**O‘quvchi:** Halollikni.

**O‘quvchi:** Tartibni.

**O‘qituvchi:** Ha, lekin buni chuqurroq tushunamiz. Jasurlik – bu faqat jang qilish emas. Jasurlik – bu qo‘rqib turgan paytda ham to‘g‘ri ishni qilish. Halollik – bu hech kim ko‘rmayotganda ham to‘g‘ri yo‘lni tanlash. Tartib – bu har kuni o‘z vazifasini bajarish, o‘z ustida ishlash.

Amir Temur aynan shunday fazilatlar orqali buyuklikka erishgan. U birdaniga buyuk bo‘lib qolmagan. U kichik ishlarni to‘g‘ri qilishdan boshlagan. Har kuni o‘zini tarbiyalagan.

**Interaktiv mashq: “Men Temur boboga o‘xshagan inson bo‘laman?”**

**O‘qituvchi:** Endi har biringiz men boshlagan gapni davom ettirasiz:

“Men Temur bobo kabi...”

**O‘quvchi:** ...halol bo‘laman.

**O‘quvchi:** ...yaxshi o‘qiyman.

**O‘quvchi:** ...do‘stlarimga yordam beraman.

**O‘qituvchi:** Juda yaxshi. Bu oddiy gaplar emas. Bu – kelajakdagi katta ishlarning boshlanishi.

Bilasizlarmi, bolajonlar, yurtimizda Amir Temur boboga o‘xshagan mard, jasur va aqlli avlodni tarbiyalash uchun bir nechta maxsus maktablar ochilgan. Ular “Temurbeklar maktabi” deb nomlangan. Hozir shu maktablardan biriga videosayohat qilamiz.

### **Vizual kontent**

**“Shahrisabdagi Temurbeklar maktabidamiz!”**

<https://youtu.be/EPmMcmnJWaU>

**O‘qituvchi:** Bolajonlar, videodan o‘zingiz guvoh bo‘lganingizdek, “Temurbeklar maktabi”da Amir Temur boboga o‘xshash istagida bo‘lgan bolalar ta’lim olishadi. U yerda bolalarga faqat jang qilishni emas, irodasini chiniqtirishni, aql bilan reja tuzishni va adolatli bo‘lishni ham o‘rgatishadi. Sizlar ham shu bolalar kabi Temur bobomizdan adolat, sabr, iroda va jasoratni o‘rganinglar, xo‘pmi?

**O‘quvchilar:** Xo‘p bo‘ladi!

**O‘qituvchi:** Har bir insonning ichida katta imkoniyat yashaydi. Har biringizning ichingizda ham kuch bor. Har biringizning ichingizda kichik Temur yashaydi.

Har kuni kichik, lekin to‘g‘ri qadamlar qo‘yish orqali inson o‘zini o‘zgartiradi. Har kuni bir yaxshi ish qilish orqali u kuchliroq bo‘ladi. Har kuni bilim olish orqali u aqlli roq bo‘ladi.

Demak, buyuklik uzoqda emas. U bugundan, sizning qarorlaringizdan boshlanadi. Bugundan boshlab har biringiz o‘zingizdagi kichik Temurni tarbiyalaysiz.

### **YAKUNIY QISM (5 daqiqa)**

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilar. Bugun biz guvohi bo‘lganimizdek, Amir Temur buyuk bo‘lib tug‘ilmagan. U o‘zini tarbiyalagan, shuning uchun buyuk insonga aylangan. Har kuni o‘z ustida ishlagan. Har kuni to‘g‘ri qaror qilgan. Ana shu kichik qarorlar uni buyuk qilgan.

Endi navbat sizlarga. Bugundan boshlab har kuni kamida bitta yaxshi ish qilasiz:

- ota-onangizga yordam berasiz;
- do‘stingizni qo‘llab-quvvatlaysiz;

- yolgʻon gapirmaysiz;
- tartibli va irodali boʻlasiz.

Kim eng koʻp yaxshi ish qilsa, u “Eng kuchli Temur” boʻladi.

Endi biroz harakat qilamiz. Hammamiz oʻrnimizdan turamiz. Tasavvur qiling, siz kichik Temursiz. Otda ketyapsiz. Qoʻlingizda qilich yoki kamon, qarshingizda dushman. Ekranga qarab mashqlarni takrorlaymiz.

## **Vizual kontent**

### **Men jangchiman**

[https://youtu.be/xPd\\_0O1EoW8?si=sFS0LBqUG1xWwgkK](https://youtu.be/xPd_0O1EoW8?si=sFS0LBqUG1xWwgkK)

**Oʻqituvchi:** Bolajonlar, buyuk insonlar uzoqda emas, sizning ichingizda yashaydi. Har biringiz bugundan boshlab oʻzingizni tarbiyalasangiz, toʻgʻri yoʻlni tanlasangiz, siz ham katta ishlarni uddalay olasiz.

Ayting-chi, siz bunga tayyormisiz?

**Oʻquvchilar:** Ha!

**Oʻqituvchi:** Unda bugundan boshlaymiz. Kichik Temurlar katta Temurlarga aylanadigan yoʻl aynan shu yerdan boshlanadi.

Shu bilan darsimiz tugadi. Xayr, aziz bolajonlar.